

Date: 3rd November-2025

**XIX-XX ASR BOSHLARIDAGI SHIMOLIY BUXORO
QORAQALPOQLARINING KICHIK GURUHLARI VA ULARNING IJTIMOIIY
MUNOSABATLARI**

Mamatsharipov Nurxan

Navoiy davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq kafedrası
o'qituvchisi



XIX asrda Buxoro va Qo'qon xonliklarida yashovchi qoraqalpoqlarda Sirdaryoning quyi va o'rta oqimida yashagan ota-bobolaridagi kabi urug'larga bo'linish va biylarning boshqaruvchiligi saqlanib qolgan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridagi Xorazm qoraqalpoqlarining urug'lik strukturasi 5-6 bosqichdan iborat juda murakkab xususiyatlarga ega bo'lgan.¹⁰

Qoraqalpoqlarning Farg'ona va Samarqanddagi guruhlarida bunday murakkab urug'chilik tuzilmasi bo'lmagan, shuning bilan bir qatorda ko'pincha o'zining urug'lik guruhi bo'yicha Xorazm qoraqalpoqlari urug'lariga o'xshash bo'lgan. Masalan, Farg'ona qoraqalpoqlarida juda yirik urug'lardan biri mang'it guruhi bo'lgan. Bu Xorazm qoraqalpoqlarining urug'chilik tuzilishida ham katta o'rin egallaydi. Xuddi urug' orasida mayda tiyralar haqidagi xotiralar to'liq saqlangan. Bizning informatorlarning aytishiga qaraganda, mang'itlar oqmang'it, qaramang'it to'qmang'it, cho'qmang'it, toqmang'it, bo'rimang'it, tulki-mang'it, chuyit, temirxo'ja, yomonsha bo'lib ko'plab toifalarga bo'lingan. Farg'ona qoraqalpoqlarining orasida keneges urug'i ham bo'lgan. Bizning informatorlardan biri kenegesning mang'itdan chiqqanligi haqida aytib berdi. Bu Xorazm qoraqalpoqlaridagi kenegeslar bilan mang'itlarning bir-biriga yaqin, aralash joylashgan qoraqalpoq urug'lari bo'lgani sababli, biz uchun juda qiziq. Afsonalarga qaraganda, ular bir otadan kelib chiqqan deganini aytadi. Farg'ona qoraqalpoqlarining orasida qipchoq urug'i ham bo'lgan, lekin ularning juda mayda tiyralarga bo'linishi haqida esdaliklar xalqda deyarli saqlanmagan. Bir qator informatorlar bu urug'ning xitoy-qipchoq va qavqipchoq bo'lib ikkiga bo'linganligi haqida aytadi. Xorazm qoraqalpoqlarida xitoy va qipchoq ikkovi ikki boshqa yirik urug', lekin tez-tez qiz olib turganligi sababli yaqinlashib ketgan.

Farg'ona qoraqalpoqlaridagi qo'ng'iroq urug'ining bo'linishi haqida hech iz qolmagan desa ham bo'ladi, ammo bu Xorazm qoraqalpoqlarida yirik urug'larning (aris) biridan hisoblangan. Informatorlar qo'ng'iroqlar haqida boshqa guruhlarining qatorida so'z etadi. Shunday bo'lsa-da, informatorlardan biri mu'yten urug'i da uyiruvchi va telemin (bu

¹⁰ Барлық каракалпақлар он төрт руу (қытай, қыпшақ, кенегес хәм маңғыт тийрелериней куралқан хәм Коңырат (шуллик дам жауынғырдан ибарат) болып екиге белинген. Т. А. Жданко. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.-Л., 1950 г., 38-бет.

Date: 3rd November-2025

ikkovi ham Xorazm qoraqalpoqlarida uchramadi) urug'lari singari qo'ng'irotgga tegishli deganini aytadi.¹¹

Agar Farg'ona qoraqalpoqlarining urug'ga bo'linishi haqida biz faqat katta yoshdagi informatorlardan olingan ma'lumotlarga ega bo'lsak, Samarqand XIX asrdagi tarixiy adabiyotlarda bir qancha ma'lumotlar bor. Bu haqda A.D. Grebenkin ancha batafsil yozadi. U O'rta Zarafshonda yashovchi qoraqalpoqlarning orasida uch yirik bo'limning: qo'ng'irot-qoraqalpoq, qipchoq-qitoy-qoraqalpoq va uyshinmitan-qoraqalpoqning bo'lganligini ko'rsatadi. Bu uch bo'lim Xorazm qoraqalpoqlarida ham bor.¹² Har bir bo'lim bir qator "bo'limchalarga" (jami 25 ta bo'limcha) bo'linadi. Xorazm qoraqalpoqlarining orasida uchraydigan shunday bo'linmalar katta qiziqish uyg'otadi. Masalan, qo'ng'irot bo'limiga qaramoyin, ashamayli, irg'oqli bo'linmalari kiradi.¹³ Xorazm qoraqalpoqlarida bu ham qo'ng'irot arisiga kiradigan urug'lar (qora-bo'yin, ashamayli, irg'oqli). Samarqand qoraqalpoqlarining bir qismi xitoy va qipchoqlarga birlashishi juda qiziq. Xorazm qoraqalpoqlarida ham bu ikkovi bir-biriga yaqin urug'. Zarafshon qoraqalpoqlaridagi xitoy-qipchoq tarkibiga bessari bo'limi kirishi aytilgan. Buni Xorazm qoraqalpoqlaridan ham uchratish mumkin. Mitan bo'limi Samarqand qoraqalpoqlarida ham bo'lib, ular qo'ng'irotgga qo'shilmagan, ammo Xorazmdagi mu'ytan urug'i qo'ng'irot bo'limining tarkibiga kirgan, biroq bu urug' qo'ng'irot bo'limining tarkibiga boshqalarga qaraganda keyinroq kirgan. Mana shuning natijasida mu'ytenlarning folklorida ham, madaniyatida ham alohida o'ziga xos xususiyatlar bor. Qoraqalpoq-mitanlardan tashqari Zarafshon mitanlari 1872-yili A.D. Grebenkinga bunday degan: "Biz o'zbek emas, no'g'aymiz. Bizning bir paytlar Rossiyada yaxshi yashaganimiz haqida qo'shiqlar bor, biz shunda ham u yerdan Samarqandga ko'chganmiz."¹⁴ Zarafshon mitanlarining qoraqalpoqlarga yaqinligi haqida 1926-yili M. Magidovich yozgan edi.¹⁵

Samarqand qoraqalpoqlari uchun ham, Xorazm qoraqalpoqlari uchun ham bir xil bo'lgan urug' nomlaridan tashqari, A.D. Grebenkin Xorazm qoraqalpoqlaridagi bizga noma'lum qo'ng'irot bo'limining tarkibiga kiruvchi urug'larni, masalan, beshbola, qovunchi, oq qovun tungiatar urug'larini ko'rsatib o'tadi.

Zarafshon qoraqalpoqlarining urug'lik tarkibi haqida boshqa mualliflar ham (V. Xanikov, V. Radlov) A. D. Grebenkinning materiallarini to'ldiruvchi uzil-kesil, to'liq bo'lmagan ma'lumotlar beradi.¹⁶

Qoraqalpoqlarning Buxoro guruhining urug'chilik tizimini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi. Bu haqda tarixiy adabiyotlarda hech qanday ma'lumotlar saqlanmagan. Buxoro

¹¹ Л. С. Толстова. Каракалпаки Ферганской долины, 44, 46-бетлер; Т., А. Жданко. Очерки исторической этнографии каракалпаков, 50, 94-бетлер.

¹² Коцyrat—арыс, бөлим; мүйтен —усы бөлимнен шыққан руу, қытай хэм кыпшак—он терт руу бөлиминен шыққан руу.

¹³ А. Д. Гребенкин. Узбеки, Русский Туркестан, Сборник изданный по поводу политехнической выставки, М. 1872, вып. II 99 бет.

¹⁴ А. Д. Гребенкин. Узбеки, 104-бет.

¹⁵ Материал по районированию Средней Азии. Территория и население Бухары и Дорезма, да.. 1, Бухара — Ташкент, 1926 г., 219-бет.

¹⁶ И Ханыков. Описание . бухарского ханства, 52-бет; В. Радлов. Средняя Зеравшанская долина 63 бет.

Date: 3rd November-2025



qoraqalpoqlari orasida ham o'tkazilgan tarixiy etnografik tadqiqotlar Samarqand va Farg'ona qoraqalpoqlariga qaraganda ularning avvalgi urug'chilik tuzilishi haqida eslatmalar ancha to'liq saqlangan. Informatorlarning aytishiga qaraganda, qoraqalpoqlar juda yaqin qarindoshlik aloqasida juft-juftidan birlashgan: xitoy-qipchoq keneges-mang'it va mu'yten-qo'ng'iro't bo'lib olti arisga bo'lingan. Xorazm qoraqalpoqlarining yirik urug' nomlari ham shunday bo'lib, xitoy va qipchoq, shuningdek, keneges va mang'it (bu Xorazm qoraqalpoqlarida o'n to'rt urug' arisiga kiradi) urug'lari ham juft-juftidan birikkan. Ammo, mu'yten o'z oldiga urug' bo'lib, so'nggi davrlarda qo'ng'iro't arisining tarkibiga kirgan. To'g'ri, Xorazm qoraqalpoqlarining barcha urug'lik strukturasi ancha murakkabroq, lekin chamasi, bu strukturaning yuqori guruhi Xiva xonligi tarkibida bo'lgan davrda shakllangan,¹⁷ va, ilgari u urug'lar asosiy guruhlardan hisoblangan.

Ancha mayda urug'larga ko'z yugurtirib qarasak, ko'pchilik urug' nomlarining Xorazm qoraqalpoqlarining urug' nomlari bilan mos kelishini ko'rish mumkin. Bu ularning kelib chiqishi bir ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

XVIII asrdagi Quyi Sirdaryo qoraqalpoqlaridagi patriarxal-feodal munosabatlar bilan biylarning hukmronligini P. P. Ivanov o'zining "Ocherk istorii karakalpakov" degan asarida obrazli tarzda ochib ko'rsatadi. U XIX asrning birinchi choragidagi Buxoro xonligining ijtimoiy tuzumini xarakterlab, mahalliy jamiyatning sinfiy tuzilishining muhim xususiyatlarini, xususan, o'zbeklar orasida ham, shuningdek, xonlikning boshqa xalqlari, masalan, xonlikning shimoliy chekkasida yashovchi qoraqalpoqlar, turkmanlar va qozoqlar orasida ham "ancha" rol o'ynagan urug'chilik tuzumining qoldiqlarini hisobga olish zarurligi haqida gapiradi.¹⁸

Urug'chilik jamoalari ichidagi mulk tengsizligi o'zining eng so'nggi darajasiga borib yetdi. Bevosita ishlab chiqaruvchilar urug' zodagonlariga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib qoldi. Urug'dagi yaylovlar bilan boshqa yerlarni biylar taqsimlab, ularning yaxshi yerlarini o'zlari o'zlashtirib o'tirgan. O'z urug'doshlarini ekspluatatsiya qilish uchun o'zaro urug'chilik yordamlarining eski shakllari qo'llanilgan. Buxoro xonligining shimoliy qismida yashovchi katta podalari bor qoraqalpoq biylari bilan yuqori boshqaruvchi sinflarning boshqa vakillari yaxshi quduqlar bilan yaylovlarga egalik qilgan. Ularning yaqin yashaydigan kambag'alroq urug'doshlari yaylovlardan foydalanish uchun biy va boylarning xo'jaligida har xil ishlar qiladigan bo'lgan. Masalan, mollarini boqqan, qo'y qirqqan, ularning har xil topshiriqlarini bajargan va h.k. Bundan tashqari, qo'rg'on urug' boshliqlarining mollarini yollanma cho'ponlar boqqan. Farg'ona vodiysidagi qoraqalpoqlarda ekspluatatsiyaning quyidagi shakllari bo'lgan: "yordam berish" - kambag'allarga sutidan foydalanish uchun mol bergan, buning uchun u biy yoki boyning xo'jaligida turli ishlarni bajargan; "xoshar" - uy qurishda, hosil yig'ishda va h.k. ekspluatator guruhlarga beriladigan yordam, "boqish" kambag'al qarindoshining bolasini ekspluatatsiya qilish niyatida biyning yoki boyning boqishi.

¹⁷ П. П. Иванов. "Очерки истории каракалпаков." Материалы по истории каракалпаков М—Л. 1935, 52-бет.

¹⁸ П. П. Иванов. „Восстание китай-кипчаков в Бухарском ханстве, 22-бет.

Date: 3rd November-2025



Xalq savdogar, o'simxo'rlar tomonidan ham ezilib kelgan. Ular qoraqalpoqlarning quyi va o'rta Sirdaryoda yashab turgan vaqtlaridayoq paydo bo'lgan. Bu jarayon asta-sekin kuchaya boshlagan. Boylar katta yer uchastkalariga va minglab chorva mollariga ega bo'lgan. A.D. Grebenkinning xabariga ko'ra, Zarafshon qoraqalpoqlarining eng boy xo'jaliklarida 2000 boshgacha qo'y bo'lgan.¹⁹ Boylar bilan bir qatorda, yersiz, shuningdek, molsiz xo'jaliklar ham turmush kechirgan. XIX asrning 60-70-yillarida Zarafshon vodiysidagi yersizlar soni ayrim tumanlarda 25 foizgacha yetgan²⁰. Dehqonlarning kambag'al qatlamlarining, ayniqsa, yersizlarning ahvoli Buxoro xonligida ham, Qo'qon xonligida ham juda og'ir bo'lgan. Ularning aksariyat qismi yarim xo'jalik holatida bo'lib, o'z mehnati uchun hosilning ulushidan 1/4 ulushigacha olgan. Bu ularning qo'lida chorva mollari, qishloq xo'jaligi qurollari va ekin urug'larining bor-yo'qligiga bog'liq bo'lgan. Yersizlarning bir qismi yolchilik (qora mol, norcha) qilgan. Sahrolardagi molsiz (yoki ozroq moli bor) kambag'allar boylarning molini boqqan, shuningdek, ko'mir va tuz tayyorlash bilan shug'ullangan.

¹⁹ А. Д. Гребенкин Узбеки, 98-бет.

²⁰ А. Д. Гребенкин Узбеки, 63-бет.